

## Mavzu: Gap

Aa

Quyosh ufqga  
yashirindi.

ufq

LUG'AT



**Ufq** – osmon bilan yer  
tutashgandek ko'rinadigan  
chiziq.



**1-mashq.** O'qing. To'rt bo'g'inli  
so'zlarni bo'g'inga ajratib yozing.

Biz ufq chizig'i tomon qancha  
harakat qilmaylik, u bizdan doimo  
bir xil masofada uzoqlashib  
boraveradi. Ufqqacha borishning  
imkoni yo'q. Dengiz yoki keng  
dalada ufq juda aniq ko'rinadi.

- Matn nechta gapdan iborat?
- Ufq chizig'ini tunda ko'rish mumkinmi?





**2-mashq.** Aralash berilgan soʻzlardan gaplar hosil qiling.

1. Oltin, keldi, kuz.
2. shamol, barglarni, Kuzgi, aylantiradi, rang-barang.
3. issiq, oʻlkalarga, qushlar, uchib ketadi, Koʻchmanchi.
4. chiroyli, fasl, qanday, Kuz!



**Gap** tugallangan fikrni bildiradi. Gap soʻzlardan tuziladi. Yozuvda har bir gapning birinchi soʻzi bosh harf bilan ifodalanadi.

**Masalan:** Kuzda qushlar issiq oʻlkalarga uchib ketadi.



**3-mashq.** Berilgan soʻzlardan gaplar tuzing.

1. togʻga, Kuzda, bordik, bilan, dadam.
2. ketdim, tomosha, qilib, tabiatni, Mashinada.
3. fasl, chiroyli, juda, Kuz.
4. chopib, yaylovda, otlar, yurardi, Keng.
5. boqdim, Men, havas, otlarga, bilan.



**4-mashq.** Maqollarni husnixat bilan koʻchiring.

1. Yer haydasang, kuz hayda,  
Kuz haydamasang, yuz hayda.
  2. Yozgi harakat – kuzgi barakat.
- Kuz haqida yana ikkita maqol yozing.

